

Uzbekistan Airways IFTM 2025 xalqaro ko'rgazmasida ishtirok etdi

2025 26 Sentabr

Uzbekistan Airways Parijda bo'lib o'tgan IFTM 2025 xalqaro B2B ko'rgazmasida o'z imkoniyatlarini muvaffaqiyatli taqdim etdi.

Ko'rgazma doirasida aviakompaniya vakillari xorijiy hamkorlar bilan bir qator uchrashuvlar va muzokaralar o'tkazib, yo'lovchi va yuk tashuvlari sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish istiqbollari, parvozlar tarmog'ini kengaytirish, shuningdek, turizm sohasidagi qo'shma tashabbuslar haqida fikr almashdilar.





